

## **Pedagogik tayyorgarlikdagi nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut: muammolar va yechimlar**

**Qo'ldashev Shavkatjon Quadratjon o'g'li**  
Xalqaro Nordik Universiteti magistranti

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimining joriy holati va uning asosiy muammolari tahlil qilinadi, ayniqsa, pedagogik kadrlar tayyorlash va malaka oshirish sohalarida yuzaga kelayotgan kamchiliklar ko'rib chiqiladi. Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning zaifligi, o'quv dasturlarining moslashuvchanligidagi kamchiliklar va xalqaro raqobatbardoshlik masalalari asosiy e'tibor markazida bo'ladi. Maqolada, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, modulli ta'lim tizimi va dual ta'lim tizimini yanada takomillashtirish kabi innovatsion yechimlar taklif etiladi. O'zbekiston ta'lim tizimini global miqyosda raqobatbardosh qilish va ta'lim jarayonini sifat jihatidan takomillashtirish uchun zarur bo'lgan choralar hamda istiqbollari ko'rsatilgan. Ushbu maqola ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, pedagogik kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, o'quv dasturlari, ishlab chiqarish hamkorligi, dual ta'lim, modulli ta'lim, ta'lim sifati, xalqaro raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, masofaviy ta'lim, mehnat bozoriga tayyorlash, pedagogik malaka, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.

**Kirish.** O'zbekiston ta'lim tizimi pedagog kadrlarni tayyorlashda nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligini ta'minlash yo'lida bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut saqlanib qolmoqda, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[3]. Maqola pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonidagi asosiy muammolar va ularni hal qilish yo'llarini ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, nazariya va amaliyot o'rtasidagi

tafovut dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni tahlil qilish hamda ushbu masalalarni hal qilish uchun takliflarni muhokama qiladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

PF-5847-sonli Prezident farmoni (2019-yil 8-oktabr) "O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'lim sohasidagi bir qancha dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo'llari ko'rsatilgan. Ushbu konsepsiyada ta'lim sifatini oshirish, pedagogik kadrlarni tayyorlashda amaliyotni kuchaytirish, zamonaviy metod va texnologiyalardan keng foydalanish choralari ko'rsatilgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2019-yil). Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va uning barcha bosqichlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Unda pedagoglarni tayyorlashning barcha bosqichlarida nazariy va amaliy bilimlarning birgalikda olib borilishi, ta'lim sifatini oshirish borasida bir qator qoidalar belgilangan.

Bundan tashqari U.Nazarov, G'.Yo'ldoshev O'qituvchi tayyorlashda amaliy tayyorgarlikni oshirishning ahamiyati kitobida pedagogik kadrlar tayyorlashda amaliy tayyorgarlikni oshirishning yo'nalishlari va metodlari ko'rib chiqiladi. Talabalar nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qilishda duch keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shodmonov A., Karimov N. Pedagogik amaliyot va nazariyaning uyg'unligi masalalari mavzusidagi maqolada o'qituvchi tayyorlash jarayonidagi amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi va nazariyaning ustuvorligi bilan bog'liq muammolar muhokama qilinadi. Mualliflar nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish usullarini tavsiya qilishadi. Xudoyberganova M. O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirishda pedagogik tayyorgarlikdagi innovatsiyalar mavzusidagi tadqiqotda zamonaviy pedagogik usullar va

innovatsiyalarning o'qituvchilar tayyorlash jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Saidova D., Hasanov R. "Ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlashda yangi texnologiyalardan foydalanish" mavzusidagi maqolada pedagogik kadrlarning zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi orqali ta'lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Ushbu izlanishlardan kelib chiqib hozirgi kundagi ta'lim tizimining bir qancha kamchiliklarini ko'rsatishimiz mumkin.

**Ta'lim sifati va xalqaro raqobatbardoshlik yetishmasligi.** O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari xalqaro standartlardan orqada qolgani sababli, bitiruvchilar xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh emas.

**Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimidagi kamchiliklar** - Oliy ta'lim tizimida malakali professor-o'qituvchilar soni kam. Shuningdek, o'qituvchilar malakasini doimiy ravishda oshirish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan.

**Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning zaifligi.** Ta'lim va amaliyot o'rtasidagi uzilish sababli bitiruvchilar amaliy ko'nikmalarga ega emaslar va ishlab chiqarish ehtiyojlariga javob bera olishmaydi.

**O'quv dasturlarining moslashuvchanligi yetishmasligi.** Ko'pgina oliy o'quv yurtlaridagi o'quv dasturlari hali ham nazariyaga ko'proq urg'u beradi, amaliyot esa cheklangan.

### **Yechimlar va takliflar**

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun xalqaro talab va standartlarga mos keluvchi dasturlarni joriy qilish zarur. O'quv dasturlarini xalqaro akkreditatsiyalardan o'tkazish bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni kengaytirish, xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik, o'zaro

talaba va o'qituvchi almashinuvi kabi tadbirlar ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu hamkorlik orqali talabalar va pedagoglar xorijiy tajribani o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ta'lim muassasalarida xalqaro standartlar bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish: O'zbekiston ta'lim tizimiga xalqaro sertifikat va kurslarni kiritish orqali professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurligini tushuntirish orqali erishish mumkin. Bunday dasturlar pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro darajaga ko'tarishda muhim omil hisoblanadi. Oliy ta'limni zamonaviy o'quv-uslubiy resurslar bilan ta'minlash uchun nazariy va amaliy bilimlarni boyitish uchun oliy ta'lim muassasalarida xalqaro darajadagi o'quv-uslubiy materiallarni yaratish va kutubxonalarni raqamlashtirish va bu orqali talabalarning bilim olish imkoniyatlari kengayadi va xalqaro ta'lim tizimiga yaqinlashtiriladi.

Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimidagi kamchilik muammosini hal qilish uchun professor-o'qituvchilarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirishda muntazam kurslar va xalqaro darajadagi treninglarni tashkil etish muhim. Pedagoglarning malakasini oshirishda xalqaro standartlarga asoslangan trening dasturlarini joriy qilish orqali ularning o'quv jarayonini boshqarish salohiyatini oshirish mumkin. Bunday treninglar pedagoglarning nazariy va amaliy ko'nikmalarini boyitishga xizmat qiladi.

**O'qituvchi va mutaxassislarni xorijiy tajriba almashinuvi dasturlariga jalb qilish** - O'zbekistondagi o'qituvchilarni xorijiy universitet va ta'lim markazlarida malaka oshirish dasturlariga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy davlatlardagi tajribadan foydalanish orqali o'qituvchilar malakalarini yanada rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari mavjudligi ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir etadi.

**Pedagogik kadrlarga mentorlik tizimini joriy etish** - yangi pedagogik kadrlarga tajribali o'qituvchilarni mentor sifatida biriktirish orqali ularni nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash imkonini berish lozim. Mentorlik orqali kadrlar tayyorlashda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va tajriba almashish jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati ortadi. Bu yondashuv yangi pedagoglarning o'z kasbida tezroq muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi.

**Oliy ta'lim tizimida raqamli resurslar va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish** - kadrlar malakasini oshirishda raqamli platformalar va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish malaka oshirishni kengaytirishga xizmat qiladi. Saidova va Hasanov raqamli resurslar yordamida pedagoglarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligini o'z tadqiqotlarida isbotlab berganlar. Bu usul ayniqsa, qishloq joylardagi o'qituvchilar uchun qulay va samarali hisoblanadi.

**Dual ta'lim tizimini takomillashtirish** - Dual ta'lim tizimi orqali oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish mumkin. Dual ta'lim tizimi orqali talabalar nazariy bilimlarini bevosita amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlarini va bu ularga ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

**Ishlab chiqarish korxonalari bilan o'quv dasturlarini birgalikda ishlab chiqish** - O'quv dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish orqali bitiruvchilar bozor talablari bilan uyg'un ko'nikmalarni egallaydilar. Ishlab chiqarish sohasi bilan hamkorlikda tuzilgan dasturlar bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyorlashda samarali vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

**Ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot dasturlarini kengaytirish** - Talabalarga ishlab chiqarish korxonalarida uzoq muddatli amaliyot o'tash imkoniyatini berish, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonlariga asoslangan amaliyotlar orqali talabalar real

tajribaga ega bo'lib, bitirgach ishlashga tayyor bo'lishlari va ish faoliyatini boshlashi oson bo'ladi.

**Mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb qilish** - Ishlab chiqarish sohasidagi yetakchi mutaxassislarni oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga jalb qilish talabalar uchun foydali bo'ladi. Bu mutaxassislar amaliy ko'nikmalarni taqdim etish orqali talabalarni ishlab chiqarish talablariga yaqinlashtiradi. Saidova va Hasanov (2019) o'z tadqiqotida ishlab chiqarish mutaxassislarini dars berishga jalb qilishning samaradorligi haqida so'z yuritadi va bu orqali ta'lim jarayonini real ehtiyojlarga yaqinlashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

**Modulli ta'lim tizimini rivojlantirish** - O'quv dasturlarini modulli tizimga o'tkazish, talabalar va o'qituvchilar uchun o'quv jarayonini moslashtirish imkoniyatini yaratadi. Modulli ta'lim tizimi orqali o'quvchilar o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tanlashlari mumkinligi ta'kidlangan. Bu yondashuv o'quv dasturlarining moslashuvchanligini oshiradi.

**Kredit tizimi va ixtisoslashgan kurslar** - O'quv dasturlarini kredit tizimi asosida tashkil etish, talabalar uchun turli kurslarni tanlash imkonini beradi. Ixtisoslashgan kurslarni kengaytirish orqali talabalar o'z kelajakdagi kasblari uchun zarur ko'nikmalarni oshirishi mumkin. Bu tizim dasturlarni talabalar ehtiyojlariga moslashtiradi.

**Innovatsion texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalarini joriy etish** - O'quv dasturlarini zamonaviy texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalari orqali moslashtirish talabalar uchun qulaylik yaratadi. Ta'limda raqamli resurslardan foydalanish o'quv dasturlarini yangilash va talabalar uchun o'qish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Masofaviy o'qish dasturlarini kengaytirish orqali o'quv dasturlari yanada moslashuvchan bo'ladi.

**Ishlab chiqarish va bozor ehtiyojlariga mos dasturlarni ishlab chiqish** -O‘quv dasturlarini ishlab chiqarish va bozor talablariga moslashtirish, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. O‘quv dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga asoslangan holda shakllantirish bitiruvchilarning yuqori malakaga ega bo‘lishini ta‘minlashga yordam beradi. Shuningdek, bu o‘quv dasturlarining real ehtiyojlarga mos kelishini ta‘minlaydi.

**Xulosa.** O‘zbekiston ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash va malaka oshirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular ta'lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviylik, o‘quv dasturlarining moslashuvchan emasligi, xalqaro raqobatbardoshlik va ta‘lim sifatiga ta‘sir qilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun innovatsion yondashuvlar, masofaviy ta‘lim, dual ta‘lim tizimi, hamkorlikni rivojlantirish va o‘quv dasturlarini bozor ehtiyojlariga moslashtirish kabi yechimlar taklif etilgan. Ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasida yaxshilangan hamkorlik, o‘quv dasturlarining moslashuvchanligini oshirish va malaka oshirish tizimlarining takomillashtirilishi, ta‘lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish imkonini yaratadi. Modulli ta'lim tizimi, dual ta'lim, ishlab chiqarish bilan birgalikda dasturlar ishlab chiqish va xorijiy tajriba almashish orqali ta‘lim tizimi samaradorligi oshishi, o‘quvchilarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar O‘zbekistonning ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash va xalqaro darajaga olib chiqish uchun muhim qadamdir. Shuningdek, pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, amaliyot va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quv jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qilish imkoniyati mavjud. Bu yechimlar ta'lim sifatini mustahkamlash va O‘zbekiston ta'lim tizimining global miqyosda yuqori o‘rinni egallashiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh, I. F., & Vaniyan, S. B. (2021). The role of parents in forming spiritual education on the basis of creative approaches. *current research journal of pedagogics*.
2. Vokhidova, N. K., Khalikova, Z. M., Islamova, F. S., & Abdulkhayeva, M. B. (2024). Organization Of The Educational Process In Primary Education With The Participation Of Artificial Intelligence. *Educational Administration: Theory and Practice*, 30(4), 1906-1909.
3. Muxtimovna, M. N. (2023, December). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOTIVATSIYANING TUTGAN ORNI. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 12, pp. 520-522).
4. Obidjon o'g'li, Y. O. (2022, December). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA NEOLOGIZM O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 23.12, pp. 306-313).
5. Obidjon o'g'li, Y. O. (2024). MATN TAHLILIDA TERMINOLOGIYA MASALASI. «*CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS*», 2(22.04), 79-82.
6. Miraliyeva, D. T. (2020). Means of combating mass culture among young people. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(9).